

**O'ZBEKISTONADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY  
ASOSALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14973845>

*Yangi Asr Universiteti 1-kurs magistratura Tarix yo'nalishi talabasi*

**Haydarova Feruza Asadullayevna**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishining tashkiliy-huquqiy asoslarining mazmun mohiyati aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmon va qarorlari turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa mamlakatimizga sayyoohlarni keng targ'ib qilish zamonaviy talablarga javob beradigan mehmonxonalarini,turistik zonalarni, ma'daniy va boy tarixiy muzeylarni,obidalarni,yodgorlilarini,majmualarni sonini va sifatini takomillashtirishga amaliy yordam beradi.*

**Kalit so'zlar :** *Turizm,farmon,qaror,qonun,sayyoohlarni,tarixiy obida,O'zbekturizm*

Respublikada turizm xizmatlari hamda ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan amaliy faoliyatlarni yuqori darajaga ko'tarishdan iboratdir. Bu bilan yurtimiz shon-shuhratini jahonga tanitishdagi faoliyatlarda turizm muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilganligini bilish va anglash qiyin emas, albatta. Respublikaning barcha ijtimoiy-madaniy salohiyatlarini yuqori darajaga o'tarish, ayniqsa aholi o'rtasida turizmni ommalashtirish asosiy tadbirlardan biriga aylanmoqda. Shu jihatdan uni huquqiy kafolatlash davri etib keldi. Buni esa O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida'gi Qonuni (1999 y. 20 avgust) misolida ko'rish mumkin.

O'zbekistonda turizmnинг dastlabki rivojlanish davri asosan o'tgan asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. 1925–1930 yillarda Markaziy Kasaba uyushmalari kengashi qoshida maxsus turistik jamiyat, ya'ni ishchi-dehqonlar turizm tashkilotini ta'sis etgan. Bu jamiyat asosan mehnatkashlarning turli shaharlarga sayohatini (ekskursiya) uyuştirish, o'quvchi-yoshlarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish, o'lkanli organish kabi tadbirlar bilan shug'ullangan. Shuningdek, dam olish kunlari ommaviy ravishda shahar atroflariga piyoda chiqish, chang'ida yurish, velosipedda sayr qilish kabi amaliy faoliyatlarni tashkil qilgan. Ularning asosiy maqsadi jismonan chiniqish, mehnat faoliyatini oshirish va mudofaa ishlariiga tayyorgarlik ko'rishdan iborat edi.

Bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning salmoqli daromad keltiruvchi sohalaridan biriga aylanib olgani ko'pchiligidan ma'lum. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining sayyoohlilik salohiyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016 - yil 2 - dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash choratadbirlari to'g'risida" gi qabul qilgan farmonida "Turizm tarmogi uchun, ayniqsa

menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta

O'zbekistonda 1991–2016-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qator muhim qarorlar va farmonlar qabul qilingan. Bu davrda mamlakat turizmni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan va shu asosda davlat siyosati shakllantirilgan. Quyida asosiy hujjatlar keltirilgan:

1991–2000-yillar: Turizmning dastlabki rivojlanish bosqichi

1. O'zbekiston Respublikasining 1992-yilgi "Turizm to'g'risida"gi qonuni

oUshbu qonun turizmni huquqiy tartibga solish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

oO'zbekistonda turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 27-iyuldagagi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni

oTurizm infratuzilmasini rivojlantirish va xorijiy sayyoohlarni jalb etish uchun "O'zbekturizm" davlat kompaniyasi tashkil qilindi.

oMamlakat bo'ylab turizm maskanlarini taqdim etuvchi yangi yo'nalishlar ishlab chiqildi.

3. 1996-yil 2-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori

oTurizmni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi.

oSayyoohlilik yo'nalishlarini kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish choralari ko'rildi.

2001–2010-yillar: Turizm sohasini modernizatsiya qilish

4. 2005-yil 10-fevraldagagi "Turizm sohasida boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni

oTurizmni rivojlantirish uchun yangi chora-tadbirlar belgilandi.

oXususiy sektor ishtirokini kengaytirish va xorijiy investorlarni jalb qilish muhim vazifa sifatida belgilandi.

5. 2006-yil 21-apreldagi "O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturi"

oMehmonxona biznesini rivojlantirish, transport xizmatlarini takomillashtirish va tarixiy obidalarga bo'lgan e'tiborni oshirishga qaratilgan dastur qabul qilindi.

6. 2009-yil 26-martdagagi "O'zbekiston Respublikasida sayyoohlilik xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori

oTuristik xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini zamonaviylashtirish belgilandi.

oSayyoohlolar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratishga qaratilgan tadbirlar belgilandi.

2011–2016-yillar: Xalqaro hamkorlik va ichki turizmni rivojlantirish

7. 2013-yil 10-dekabrdagi "2013–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sanoatini rivojlantirish konsepsiysi"

oTurizm sanoatini xalqaro talablar asosida rivojlantirish va ichki turizmni kengaytirish rejalashtirildi.

8. 2016-yil 2-dekabrdagi “2017–2021-yillarda O’zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”

oSayyohlik xizmatlarini diversifikasiya qilish va elektron vizalar tizimini joriy etish bo'yicha qadamlar qo'yildi.

Bu hujjatlar O’zbekistonda turizmni rivojlantirish yo'lida muhim bosqichlarni belgilab berdi. 2016-yildan keyingi davrda esa turizm sohasida yanada keng islohotlar amalga oshirildi.

Respublikaning barcha ijtimoiy-madaniy salohiyatlarini yuqori darajaga o'tarish, ayniqsa aholi o'rtasida turizmni ommalashtirish asosiy tadbirlardan biriga aylanmoqda. Shu jihatdan uni huquqiy kafolatlash davri etib keldi. Buni esa O’zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risidagi Qonuni (1999 - yil 20 - avgust) misolida ko'rish mumkin. Bu qonun 22 moddadan iboratdir. Ularning ba'zi bir o'ta muhim jihatlarini namuna tariqasida keltirish lozimdir:

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub"ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

3-modda. Asosiy tushunchalar. Turizm – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketish (sayohat qilish): turist O’zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs;

Ekskursiya faoliyati-turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob'ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo'nalishlar bo'yicha ekskursiya etakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarini tashkil etishga doir qismi;

11-modda. Turistik sayohat va turistik xizmatlar majmuyi. Turistik sayohat yakka tartibda yoki turistik guruh tarkibida amalga oshiriladi. Turistik xizmatlar majmuyi transport xizmati ko'rsatishni, yashash, ovqatlantirish, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Qonunning boshqa moddalarida turistlar va turistik tashkilotlarning huquqlari, vazifalari, turli xil shartnomalar va ular bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlar o'z ifodasini topgan.

Mazkur qarorlar va qonun asosida uyuştiriladigan turizm asosan davlat ahamiyatiga molik bo'lgan tadbirlardir. Bular asosan yo'llanma (putyovka) va ruxsatnomalar (litsenziya) orqaligina amalga oshiriladi va turli xil ulovlarda (samolyot, poezd, avtobus, engil mashinalar va hakozolar.) yurish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonning mustaqilligi xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalarni kuchaytirish hamda ularning ko'lmini kengaytirishni taqozo etmoqda. Xalqaro madaniy aloqalar mazmunida tarixiy shaharlar, ajdod-avlodlardan meros bo'lib qolgan turli xil obidalar, zamonaviy koshonalar, muzey, teatr, sport inshootlari, aholi istiqomat qiluvchi joylari muhim o'rnlarni egallaydi. Shu sababdan bu sohalarni yangilash, ta'mirlash, sayqal va zeb berish, ayniqsa sayohatchilar va mehmonlarga turistik xizmatlarni yaxshilash talab darajasida bo'lmog'i zarur.

Ana shunday keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlarni tashkil qilish va uyushtirish maqsadida Respublikada "O'zbekturizm" kompaniyasi tashkil etildi (1995).

"O'zbekturizm" kompaniyasi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilganligini eslatish lozim:

1. Aholining madaniy dam olishlari va sayohat qilishlarini ta'minlash.

2. Qadimiy buyuk ipak yo'li o'tgan shaharlarga aholining sayr-sayohatlar qilishiga shart-sharoitlar yaratish.

3. Ulug' allomalar xotirasiga bag'ishlab qurilgan maqbaralar, yodgorlik maskanlari va hokazolarga ziyyarat qilish uchun sayohatlar uyushtirish.

4. O'quvchi-yoshlarning tarixiy yodgorliklarni sayohatlar orqali o'rganishi va sayr qilib, dam olishlarini ta'minlash.

5. Xalqaro turizmni rivojlantirish, chet mamlakatlarga sayohat qilish, chet eldan keladigan sayohatlar guruhini ko'paytirishga alohida e'tibor berish.

6. Tijorat, o'zaro hamkorlik va boshqa maqsadlarda sayohat tadbirlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

7. Turizm bo'yicha madaniy xizmatlarni kengaytirish, ularga yoshlarni jalb etish va mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlarini jadallashtirish va hokazolar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. M.A.Mirzayev , M.T.Aliyeva "Turizm asoslari"
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rasmiy hujjatlari.